

## RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Abdullayev Nurulla Gaybullayevich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi  
"Loyiha boshqaruvi" (Project Management) yo'nalishi magistr talabasi

**Annotatsiya:** Zamonaviy raqamlashib borayotgan iqtisodiy jamiyatning "raqamlashtirish" jarayoni (ingliz tilida – digitalization ya'ni raqamlashtirilishi) haqida gapirganda, birinchi navbatda, terminologiyaga aniqlik kiritish kerak. Eng keng ma'noda "raqamlashtirish" jarayoni odatda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va assimilyatsiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishni anglatadi. Axborotni yaratish, qayta ishlash, o'zaro almashish va samarali uzatish texnologiyalaridir<sup>19</sup>.

**Kalit so'zi:** Axborot, raqamli iqtisod, virtual muhit, domen, axborot-kommunikatsiya, on-line, terminologiya.

"Raqamli iqtisodiyot" tushunchasi va kelib chiqishi rivojlanish bosqichlari tahlil qilinganda bir qator olimlar tomonidan turlicha ta'riflar bilan asoslantirilganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, "Raqamli iqtisod – haqiqatimizni to'ldiradigan virtual muhit"dir deya iqtisodiyot fanlari doktori, Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi V.Ivanov ta'riflagan.

"Raqamli iqtisod" atamasiga ikkita yondashish mavjudligi haqida Tomsk davlat universitetining professori, R. Meshcheryakovning o'z fikr-mulohazalarini asoslantirishga harakat qilgan, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida iqtisodiyotning va elektron tovar va xizmatlar eksklyuziv domen tavsiflovchi raqamli iqtisodiyotligini ta'kidlagan. Bunda Birinchi yondashuv "klassik" deb nomlanib, klassik misollar - teletibbiyot, masofaviy ta'lim, dori-darmonlarni sotish (filmlar, televizorlar, kitoblar va boshqalar). Ikkinchi yondashuv: "raqamli iqtisod" ilg'or raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarishdir deya ta'kidlagan.

M.L. Kalujskiy "Raqamli iqtisodiyot" – zamonaviy iqtisodiy internet faoliyati, shuningdek, shakl, uslub, vositalari hamda uni amalga oshirish aloqa muhiti ekanligini ta'riflab bergan.

Manbalarda keltirilishicha "Raqamli iqtisodiyot" – iqtisodiyotning bunday turi ma'lum darajada amalda avtomatik tizim asosida ishlaydigan turdagi model. "Raqamli iqtisod" – bu ishlab chiqarish kompleksi, inson uchun hayot va qulay bo'lgan tovar va xizmatlarni yaratadigan ishlab chiqarish tizimi bo'lib, u yerda ma'lum darajada Kiber-jismoniy tizim yaratilishi nazarda tutiladi.

Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot bu ishlab chiqarish kompleksi insonlar uchun qulay, sodda va shaffofliklarni ta'minlaydigan tovar va xizmatlarni yaratadigan virtual olam(muhit) bo'lib, raqamli texnologiyalardan oqilona va samarali foydalangan holda zamonaviy ekotizim – iqtisodiy ishlab chiqarish tizimi hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli

<sup>19</sup> Данное определение приводится, в частности, экспертами UNCTAD (The Transformative Economic Impact of Digital Technology, [http://unctad.org/meetings/en/Presentation/ecn162015p09\\_Katz\\_en.pdf](http://unctad.org/meetings/en/Presentation/ecn162015p09_Katz_en.pdf))

iqtisod rasmiylashtirilishi mumkin bo'lgan barcha faoliyat va yo'nalishlarni atroflicha qamrab olishga xizmat qiladi, ya'ni barcha mexanizmlar mantiqiy sxemalarda aks etadi. Bu esa o'z navbatida barcha turdagi "narsalarni" ishlab chiqarish, yetkazish, o'zaro almashtirish va iste'mol qilish tizimiga aylantirishga samarali imkon beradi. Darhaqiqat inson tasavvuridagi dunyoning virtual qismida ishlab chiqarish kuchi bo'lmagan, yangi g'oyalar va mahsulotlar yaratish imkoniyati mavjud emasdi.

O'tgan asrning oxirida ham naqd bo'lmagan raqamli pul rasmiylashtirilgan edi. Ular markaziy banklar tomonidan chiqarilgan va ular depozit pul deb atalar edi. Endi yangi pul to'plami paydo bo'ladi, bu shaxsiy raqamli pul deb ataladi. Ko'pgina mutaxassislarining fikriga ko'ra, bu odamlar uchun hayotni osonlashtirmaydi. Shu bilan birga, yoshlarning yangi texnologiyalarga moslashishi osonroq bo'lgan raqamli iqtisodagi yoshlarning ahamiyati katta yoshdagilarga qaraganda muhimdir.

Shubhasiz raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi aholi bandligi sohasiga ta'sir qiladi. Kelajakda quyidagi kasblar paydo bo'lishi mumkin:

- shaxsiy brendni boshqaruvchi;
- virtual advokat;
- davlat organlari vakillari bilan muloqot platformasi moderatori;
- infostyleist;
- raqamli lingvist;
- muddatli broker;
- interfeysi uslubchisi.


Shuningdek, raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi oqibatida milliy raqamli iqtisodiy xavfsizlik tizimini yaratish lozim. Instituisonal yondashish nuqtai nazaridan "Milliy raqamli iqtisodiy xavfsizlik tizimi" tushunchasi murakkab siyosiy-huquqiy, tashkiliy, texnik, ijtimoiy-madaniy tizim bo'lib, u milliy raqamli iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi ob'ekt va sub'ektlar majmuasidan iborat, bu raqamli iqtisodiyot sub'ektlarining milliy manfaatlarini, amaldagi milliy qonunchilikni yetarli darajada himoya qilish uchun foydalanilishi mumkin. Bu esa davlat siyosati, milliy raqamli iqtisodiy xavfsizlik, norasmiy norma va ijtimoiy xulq-qoidalarini tartibga tushiruvchi me'yoriy-huquqiy tizimni yaratish kerakligini bildiradi.

"Raqamli iqtisod", fan tili bilan aytganda tasavvur funksiyasining ayrim xususiyatlarining mavjudligi sababli "klassik iqtisod"ga xos bo'lgan cheklovlarni birmuncha yengishga imkon yaratadi:

1. Bir nechta shaxslar moddiy tovarlardan foydalana olmaydilar, sababi raqamli tovar(mahsulot)larning bunday to'siqlari yo'q: nusxa olinadi hamda cheksiz darajadagi shaxs(odam, inson)larga taqsimlanadi.

2. Materiallardan foydalanish paytida foydalanish taqiqlanadi. Raqamli mahsulotlar asl xususiyatlarini yo'qotmaydi, shuningdek, bu xususiyatlar birgalikda ishlash yoki almashinuv jarayonida yaxshilanishi mumkin.

3. Axborot-kommunikatsiya maydonchalari odatiy savdo binolarida mavjud bo'lgan maydonlarning hajmiga cheklovlar va shu bilan birga bir vaqtning o'zida xizmat ko'rsatadigan mijozlarning soni va miqdori jihatidan cheklanishlarini oldini oladi.



Iqtisodiyotni raqamlashtirishni hisobga olgan holda iqtisodiyotni oqilona yaratish konseptual modelida ijtimoiy-iqtisodiy sektor o'sish tahlili fazo-vaqt rivojlantirish rejalashtirish usullaridan turli darajadagi nazorat vazifalarini muqobil shakllantirish quyidagi natijalarga olib keladi:

- iqtisodiyotning holati tahlil qilinadi. Bunga iqtisodiy boshqaruv tizimini, uning institutsional qo'llab-quvvatlashini o'rganish kiradi;
- dehqonchilik darajalari aniqlanadi;
- oqilona iqtisodiyotning sub'ektlari aniqlanadi;
- ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatadigan oqilona iqtisodiyotning ayrim sub'ektlari ko'rsatkichlari aniqlanadi;
- ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar to'planadi;
- aniqlik va noaniqlik, ichki va tashqi xavflarni aniqlash uchun o'rganish;
- instituional deformatsiyalarning ichki va tashqi tahdidlaridan oqilona iqtisodiyotning xavfsizligini ta'minlash uchun tuzatuvchi choralar ko'riladi.

Raqamli iqtisodning shakllanishi muayyan bazaga ega bo'lishi kerak, bu quyidagicha bo'lishi lozim:

- raqamli infratuzilmani va aloqa standartlarini ishlab chiqish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash;
- On-Line xizmatlarni kengaytirish;
- fuqarolar uchun tarmoq ichidagi va On-Line kommunikatsiyalarga bepul kirishni yaratish;

- raqamli ekotizimlarda axborot oqimlari va bilimlarni boshqarishni takomillashtirish.

"Raqamli iqtisodiyot"ni yaratish va yuritishning asosiy muhim jihati, birinchi navbatda, quyidagi dolzarb masalalarni hal etishga yo'naltirilgan davlat siyosatini amalga oshirishdan iboratdir.

Hududlarning har jihatdan investitsion jozibadorligini yanada oshirish hamda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, mintaqalarning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish sohasidagi hududiy nomutanosiblikni hisobga olgan holda minimallashtirish, shuningdek hudud va mintaqalar ortasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash, inson salohiyatidan oqilona va samarali foydalanishni talab etadi.

Biz mintaqaviy rivojlanish sohasida to'rtta strategik vazifani belgilashni taklif qilamiz:

Birinchi, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi sifatida hududlarning raqobatdoshligini oshirish va ularning resurs salohiyatini mustahkamlash;

Ikkinchi, inson resurslarini rivojlantirish;

Uchinchi, mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish hamda mintaqalarni rivojlantirish uchun institutsional sharoitlarni yaratish.

To'rtinchi, jarayonlarni samarali boshqarish va o'z vaqtida samarali, muhim qarorni qabul qilish uchun onlayn rejimda xo'jalik yurituvchi sub'ekt darajasida moliyaviy va iqtisodiy xavfsizlikni monitoring qilish uchun dasturiy ta'minotni taqdim etish uchun bevosita muloqot qilish va aloqa uchun aloqa tizimini yaratish kerak.

Ushbu vazifalar davlat tomonidan tadbirkorlik va kichik biznesni moliyalashtirishni maqsadli yo'naltirishda o'z vaqtida javob berish uchun mintaqaviy va davlat darajasida muntazam ravishda yangilanishi, qo'llab-quvvatlashi, monitoringini amalga oshirishi hamda muntazam yangilanishini taklif etadi. Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari darajasida samarali uzluksiz ishlash uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlar internetdan foydalanishadi. Shu bilan birga, "biznes hokimiyat" tizimi sub'ektlari o'rtasida samarali hamkorlikni o'rnatish modeli ajralmas va muhimdir.

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish joizki, "Raqamli tizim"lar uchun texnologiya-xizmatlarni muhim misoblanadi. Jumladan: - axborot-kommunikatsiya tizimining rivojlangan struktura(tuzilma)si; - ob'ektiv yo'naltirilgan guruhlarda ishtirok etadigan interaktiv jamoalar; - axborot manba(resurs)lar; - ma'lumot (axborot) bazalari; - elektron (onlayn) o'zaro munosabat(ta'sir)larning yangi shakl va uslublari; - biznes, hukumat va jamiyatni o'zaro aloqa (integratsiyalashish) uchun platforma; - raqamli olam(muhit).

Xulosa va takliflar – Yuqoridagilarni hisobga olib, raqamli texnologiyalarni qo'llash va ulardan foydalanish, ularning mavjudligi va sifati, tayyorgarlik bosqichlari va rivojlanishning turli darajalari, majburiy maktabgacha ta'limda texnik ko'nikmalar olish bo'yicha zarur ta'limning darajasini oshirishga alohida e'tibor berish kerak hamda korxonalar va tashkilotlarda oliy ta'lim va doktorantura ta'lim dasturlarini ta'minlashimiz kerak.

Mintaqaviy darajadagi oqilona iqtisodiy tizimni shakllantirish barqaror iqtisodiy o'sish nuqtalarini aniqlash, mintaqaning rivojlanish sohalarini va yo'nalishlarini nafaqat zamonaviy sharoitlarda raqamli shakllantirishni emas, balki birinchi navbatda, inson resurslarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash yo'li bilan davlat-xususiy sektor hamkorligi asosida iqtisodiy va innovatsion rivojlanish sarmoyasi shakllantiriladi.

Asosiy omillarni dasturiy ta'minotni faollashtirishga qaratilgan ommaviy axborotlashtirishni rivojlantirish, apparatni yangilash, tarmoq texnologiyalarini rivojlantirish, tranzaksion sektorning o'sishi hisoblanadi. Shu bilan birga, raqobatbardosh zamonaviy iqtisodiyot shakllantirish va rivojlantirish g'oyalarini targ'ib qilish, axborot bozori sifatida tavsiflangan ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning rivojlanishi sohasida foydalanuvchi(iste'molchi)lar, ishlab chiqaruvchilar, vositachilar o'rtasidagi savdosi o'zaro axborot mahsulotlari bozorini shakllantiradi. Ushbu yondashuv hozirgi kunda bir qator mamlakatlarda axborot industriyasining ustunligini kuchaytirib, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasi borgan sari bilimga asoslangan va innovatsion asosida kadrlarga ehtiyojni kuchayishiga olib kelmoqda.

Raqamlashib borayotgan barcha sohalar qatori dunyo loyihalarni boshqarish sohasida katta tajriba to'plagan. Xususan, loyihalarni boshqarish dunyodagi barcha yirik kompaniyalar va tashkilotlarda qo'llaniladi. Loyihalarni boshqarish dasturi dunyo bo'ylab millionlab kompyuterlarga o'rnatildi - ikki milliondan ortiq kompyuterlarga faqat Microsoft Project o'rnatilgan.

Bu kabi tizimlashtirish va oliy maqsad sari harakatni ta'minlash, natijadorlikni oshirish orqali yoshlar bandligini ta'minlash hisoblanadi.